



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### TA`LIM MIHIMMI YOKI TARBIYA?!

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna

Farg'ona viloyati yuridik tehnikumi mahsus fan o'qituvchisi.

3-darajali yurist. Magistr

E-pochta:shokhidaxonjiyanova@gmail.com

Tel:91 327 45 05

Abdusalomova Mahliyo Shokirjon qizi

Sud-huquqiy faoliyati, 37-23 rypyx o'quvchisi

#### Annotatsiya:

Ushbu tezisda ta`lim va tarbiya o`rtasidagi farqlar va o`xshashliklar, ta`limning va tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyati haqida o`z fikrlarimizni batafsil keltirib o`tganmiz

**Kalit so`zlar:** Ta`lim, tarbiya, ta`lim va tarbiya o`rtasidagi farq, ta`lim va tarbiya o`rtasidagi bog`liqlik.

### IS EDUCATION IMPORTANT OR EDUCATION?!

Ziyanova Shahidakhan Mahsumovna

Special subject teacher of Fergana region legal technical school.

3rd level lawyer. Master

Email: shokhidakhonjiyanova@gmail.com

Phone: 91 327 45 05

Abdusalomova Mahliyo Shokirjon's daughter

Judicial activity, student of group 37-23

#### Abstract

In this thesis, we have detailed our thoughts about the differences and similarities between education and upbringing, the role and importance of education and upbringing in the life of a person and society.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

**Keywords:** Education, upbringing, the difference between education and upbringing, the connection between education and upbringing.

Ta'lim va tarbiyaning o'rtaida ochiq-oydin farq bor. Ta'lim, tarbiyaning bir shaklidir. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o'z-o'zidan ta'limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma'nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o'z ichiga oladi.

Zotan, Alloh taolo insoniyatni yer yuzini obod qilish uchun yaratgan. Demak, u o'zining vazifalarini ado etishi uchun har taraflama komil va yetuk bo'lishi kerak. Buning uchun esa bizning dinimiz Islomda barcha ko'rsatma va imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi, inson o'zining oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish asnosida doimiy holda Allohga yuzlanib turishi tarbiyadir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ta'lim komil tarbiyaning bir juz'idir. U esa aqlni rivojlantiradi va sayqallashtiradi. Natijada u o'z hayotida kerak bo'ladigan ilmu ma'rifatni ashayolar to'g'risidagi turli ma'lumotlarni, kasbiy mahoratini yoki kasb va hunarlarga tegishli bo'lgan fanlarni o'rganadi. Lekin tarbiyaga o'xshab keng qamrovli bo'la olmaydi. Chunki ta'lim insonni ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarini birdek qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya doimo birga bo'lishi talab etiladi. Bu haqiqatni esa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflari orqali ham bilib olishimiz mumkin.

Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Alloh taolo Men orqali yuborgan hidoyat va ilmning misoli yerga yoqqan yomg'ir kabidir. Yerning ba'zi joyi yaxshi ekan, suvni qabul qilib, ko'plab nabotot va o'simliklarni o'stiribdi. Uning ba'zi joylari qattiq ekan, suvni tutib qolibdi. Bas, u bilan Alloh odamlarga manfaat beribdi. Ular undan ichibdilar, sug'oribdilar va ekin ekibdilar. Yerning ba'zi joylari silliq ekan. Suv tutmas va ekin ham o'stirmas ekan. Ana o'sha xuddi Allohning dinida faqih bo'lgan kishiga o'xshaydi. Alloh men ila yuborgan narsa unga manfaat beribdi. O'zgalarga o'rgatibdi. Boshqasi o'sha narsaga e'tibor bermagan kishiga o'xshaydi. Yana biri esa, men ila yuborilgan Allohning hidoyatini qabul qilmagan odamga o'xshaydi», dedilar». Ikki Shayx rivoyat qilishgan.

Imom Qurtubiy (r.a) «Nabiy sollallohu alayhi vasallam o'zлари orqali yuborilgan hidoyat va ilmni insonlar bir qo'ltim suvgaga muhtoj bo'lib turgan holatlarida



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

yuborilgan yomg‘irga o‘xshatdilar.» Ha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yuborilishlaridan avval insonlar ana shunday muhtoj va nochor holda edilar. Osmondan yoqqan yomg‘ir o‘lik yerlarni tiriltirganidek diniy ilm va ko‘rsatmalar o‘lik qalblarni tiriltirdi. So‘ngra Rasululloh sollallohu alayhi vasallam eshituvchilarni yomg‘ir yoqqan har xil yerlarga o‘xshatdilar. Ularning ba’zilarini ilmga amal qiladigan olim hamda muallim, xuddi unumdar yer o‘rnida ko‘rdilar. Suvni ichadi, o‘zi foydalanadi va o‘simpliklar o‘stirib boshqalarga ham foya keltiradi. Ba’zilari esa zamonasidagi barcha ilmlarni egallaydi, lekin unga amal qilmaydi yoki unga muvofiq hayot kechirmaydi. Boshqalarga esa yetkazadi. Bu kishilar suvni o‘zida saqlab qolib odamlar undagi suvdan foydalanayotgan yerga o‘xshaydi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday kishilar to‘g‘risida: «Mening so‘zimni eshitib boshqalarga xuddi shunday holatda yetkazgan kishini Alloh yorlaqasin», deganlar. Yana ba’zilari esa ilmni eshitadi lekin uni yodda saqlab qolmaydi, tafakkur va tadabbur ham qilmaydi. Boshqalarga ham yetkazmaydi. Bularning misoli qattiq silliq, o‘ziga hech narsani yuqtirmaydigan, suvni ham qabul qilmaydigan yer kabidir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ushbu hadisi shariflarida ta’lim va tarbiyani jamlab keltirdilar va bunda ilmga amal qiluvchi olim va muallimni eng oliy darajaga ko‘tardilar. So‘ngra, eshitgan narsasini ilm va yaxshilikni qanday eshitgan bo‘lsa xuddi shunday holatda boshqalarga yetkazgan olim va muallimni keltirdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu ikki toifani ta’lim va tarbiyada ishtirok etganlari uchun madh etdilar. Uchinchi toifani esa mazkur ishlarda ishtirok etmagani uchun qoraladilar. Agar ta’limni tarbiyadan ajratib qo‘ysa, ta’lim cho‘loq bo‘ladi. U holda ta’lim guyoki ma'lumotlar saqlanadigan quticha, idish va yana qandaydir narsaga aylanib qoladi. Natijada esa bu ma'lumotlar jamiyat uchun kerak bo‘ladigan komil insonni shaxsiyatini yetishtira olmaydi. Mana shuning uchun barcha ta’lim muassasalarida ma'lum bir yo‘nalish bo‘yicha ta’lim berish bilan birga tarbiyani ham berib ketish kerak, aks holda qanotsiz qush kabi parvoz qila olmaydi. Qush esa parvoziga qarab turib baholanadi. Bu borada diniy ta’lim berilayotgan muassasalarini alohida zikr qilib o‘tish kerak. Zotan, bu ilm ikki dunyoning obodliligiga tegishliir. Qolaversa, bu ilm bandani o‘z Robbiga ibodat qilib, bandachiliginiz izhor qilishni yo‘l-yo‘riqlarini qonunlarini o‘rgatadi. Albatta bu borada ta’lim bilan birgalikda xossatan ruhiy va aqliy tarbiya ishtirok etishi kerak.





## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ta'limgan, bilim va tafakkur islohot, innovatsiya, yangiliklar uchun lokomotivdir. Tarbiya esa odatlar, an'analar, qadriyatlar, turmush tarzini avloddan avlodga o'tkazish vositasi sanaladi. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, liberallar ta'limga ustunlik bersa, konservatorlar tarbiyani muhimroq hisoblaydi. Bularning har ikkisini ham muhim hisoblovchi oraliqdagi yana bir toifa ham bor. Ammo bu toifaga mansublarning aksarisi latent konservatorlardir.

Bizdagi ziyoli va siyosiy elitada ko'philikni tashkil etadi. Hatto universitetlar tarbiya maskani deb qaralishi, san'at asarlari – adabiyot, kino, teatrning birlamchi maqsadi odamlarga tarbiya berishdir deb ishonilishi, ommaviy madaniyatga qarshi targ'ibotlar, OAV dasturlarida ta'limi dasturlardan ko'ra tarbiyaviy dasturlarning ko'proqligi, ayrim seriallarning aynan tarbiyaviy zarari ro'kach qilinib, olib tashlangani jamiyatimizda mazkur toifa kishilarning ta'siri nechog'li kuchliligini ko'rsatadi. San'at asarlarida didaktikaga me'yordan ortiq urg'u berilishi ularning estetik jihatdan saviyasi tushishiga ham sabab bo'lmoqda. Boshqacha aytganda, didaktika estetikani yeb qo'yemoqda. Bular dunyoviy konservatorlardir. Ammo keyingi paytda ular safiga diniy konservatorlar ham qo'shildi. (Bular orasida mo'tadil konservatorlardan tortib, o'ta reaksiyonlari ham topiladi.)

Xulosa o'rnida jamiyatimiz asosan bir xil yo'nalishda fikrlovchi bir butun jamoaga aylanmoqda. Bularning ta'sirini muvozanatga keltiruvchi ikkinchi toifa – liberallar (xoh diniy, xoh dunyoviy bo'lsin) bizda, afsuski) juda ozchilik. Hatto men liberalman deganlarning ham gaplari tahlil qilinsa, konservatorligi yaqqol ko'rinish turadi. Agar kimdir men liberalman, ammo tarbiyani muhimroq hisoblayman desa, bilingki, u latent konservator.

Tarbiya-tarbiya deb, tarbiyani ham eplay olmayapmiz. Ta'limga e'tiborni kuchaytirish kerak. Bilimi oz odamga har qancha tarbiya bermang, ko'r-ko'rona ergashuvchi bo'ladi. Bunaqalardan istalgan maqsadda foydalanish mumkin. (Natsistlar ham ta'limgan avval tarbiya deb hisoblashgan.) Odamlar an'analarni otabobosidan qolgani sababli emas, balki o'ziga va jamiyatga qanchalik nafi tegishini anglab, bilib, ixtiyoriy qabul qilsin. "Miyani yuvish", indoktrinatsiya bilan ta'limgan farqi ana shunda. Birinchisida tanlov bo'lmaydi, keyingisida esa avval anglanadi, bilinadi, ixtiyoriy qabul qilinadi. Anglash esa ta'limgan bilandir. Demak ta'limgan birlamchi. Asosi mustahkam narsani majburiy tiqishtirish shartmas, anglansa ixtiyoriy qabul qilinaveradi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda\\_ta%CA%BClim](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_ta%CA%BClim)
2. <https://abt.uz/blog/oliy-talim-islohotlari-kengayib-borayotgan-imkoniyatlar>
3. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-yoshlariga-yaratilayotgan-yangi-imkoniyatlar-renessans-poydevori>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/748>
5. <https://parliament.gov.uz/news/yoshlarga-oid-qonunchilik-yoshlar-ishtirokida-muhokama-etildi>
6. <https://kun.uz/news/2016/11/04/talim-va-tarbia-birining-urnini-biri-tuldiruvci-nematlardir?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F11%2F04%2Ftalim-va-tarbia-birining-urnini-biri-tuldiruvci-nematlardir>